

ONA TILINI O‘QITISH METODIKASIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TIZIMLI YONDASHISH
METODIKASI

Ro‘zimboyeva Muqaddam

Ismoilova Nilufar

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika Instituti Turkiy tillar
fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalari*

Annotatsiya: *Oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligining shakllantirishda bosqichma-bosqichli tizim katta rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra uslubiy va pedagogik faoliyatda tajribalarning yo‘lga qo‘yilishi, o‘rganilayotgan bilim va tajribalarning amaliyotga tatbiq etilishida tajriba maktablarning o‘rni katta. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida 4+2 ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Kasbiy kompetentlikni innovatsion va o‘quv faoliyat, jarayon bilan bog‘lanishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada innovatsion o‘quv faoliyatining akt bilan bevosita bog‘liq ekanligini unutmaslik lozim. Kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabat shakllarining to‘g‘ri yondoshuvga solinishi ham muhimdir. Kasbiy kompetentlikni oshirishda tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan intellektual mashqlar, metodlar, va hamkorlik texnologiyalarini ham foydalanish lozim. Shunga ko‘ra talabalarning tajribalarini oshirish maqsadida muammoli ta’lim texnologiyalari individual tarzda yoki jamoaviy tarzda tashkil etiladi. Jarayonning amaliy ko‘nikmalar bilan shakllantirishi ta’lim tizimi talaba-yoshlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish, ijodkorlik kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Xalqaro tahlil qilish usullarini qo‘llash, xalqaro tajribalarni o‘rganish yaxshi natijalarni yuzaga keltiradi.*

Kalit So‘zlar: *AKT, innovatsion yondashuv, pedagogik tajriba, uslubiy ko‘rsatma, individual mashq, o‘z-o‘zini nazorat qilish, metodlar tasnifi.*

Bugungi kunda talabalarning metodik salohiyatini oshirish va ularning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan dars jarayonini tashkil qilishga o‘rgatish masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada talabalarning nutqiy kompetensiyasi va kasbiy kompetentlik tushunchalari mutanosiblikni tashkil etadi. “Kompetensiya” so‘zi lotinchadan tarjima qilinganda munosibman, loyiqman kabi ma’nolarni bildiradi. “Kompetentlik” so‘zi esa nazariy va amaliy bilimlarning yaxlit ifodaligiga ega bo‘lish ma’nolarini bildirib, atrofda bo‘layotgan voqea va hodisalarga nisbatan shaxsiy



munosabat bildirishni ifodalaydi. Kasbiy kompetentlikning ta’lim ishini namunali tashkil etish borasida tutgan o’rni ona tili o’qitish metodikasida yaqqol nazarda tutiladi. Ona tili o’qitish metodikasida talaba-yoshlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv shakli birinchi navbatda anglashilayotgan fikrning to’g’ri tarzda yetkazib berilishi bilan yuzaga keladi. Shuningdek, bu kabi tizimli yondashuvda talabalarning nutqiy faoliyatini oshirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko’nikmalarini oshirish, sodir bo’lgan yoki bo’layotgan voqea-hodisaga munosabat bildirish kabi ko’nikmalarining tizimli yondashuv asosida shakllantirilishi yuksak samaradorlikni kasb etadi.

“Bo’lajak o’qituvchining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish to’g’risidagi yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish quyidagi asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi:

- birinchidan, kasbiy kompetensiya o’qituvchilarning innovasion va o’quv faoliyati bo’lib, pedagogik faoliyat sifatining ko’rsatkichidir;

- ikkinchidan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat yakuniy, balki o’qituvchilar va talabalarning o’quv jarayonida innovasion yondashuv asosida o’zgarishi jarayonidir;

- uchinchidan, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi o’qituvchining tafakkurini shakllantirish jarayoniga ta’sir qiladi.

Innovasion yondashuv elementlarini tanlash va amalga oshirishda talabalarning o’quv faoliyati hisobga olinishi kerak. Oddiy qoida shundan iboratki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalar yangi bilimlarni egallaydilar, so’ngra noan’anaviy usullardan foydalanish orqali olingan bilimlar mustahkamlanishi kerak”. [1] Shuningdek, mamlakatimizdagi ta’lim tizimining 4+2 shaklida amalga oshirilishi natijasida oliy ta’lim talabalarining egallagan bilim va malakalari to’g’ridan-to’g’ri amaliyotga tatbiq etilayotganining o’zi ham ona tili o’qitish metodikasining talabalar kasbiy kompetentligining yaxlit bir tizim asosida amalga oshirilayotgan ekanligidan dalolat beradi. Talabalar kasbiy kompetentligini oshirishda individuallik va o’z-o’zini nazorat qilish ko’nikmalari katta ahamiyat kasb etadi deyish mumkin. Shunga ko’ra kasbiy kompetentlikning bosh omili ham kasbga doir bo’lgan tushuncha va ko’zqarashlarning shakllanishidan iborat. Shunga ko’ra quyidagi omillar ona tili o’qitish metodikasining kasbiy kompetentlik bilan uzviy aloqadorlikni tashkil etadi. Ular:

1. Axborotlar bilan ishlashish;
2. Nutqiy kompetensiyalarning o’zlashtirilishi;
3. Kasbga doir mavzumiylar yangiliklardan xabardor bo’lish;



4. Dars jarayonini tashkil etishda milliy va xalqaro tajribalardan foydalanish;

5. Kasbga doir mavjud tajribalarning muntazam ravishda boyitilib borilishi;

6. Boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va yuqori oliy ta'limda dars jarayonlarining tashkil etilishida farqli jihatlarning o'rganilishi;

7. Dars jarayonini tashkil etishda metodlar va metodlarning o'quvchilarga ta'siri, yosh xususiyati va o'zlashtirish darajasiga ko'ra dars uslublari va metodlarning tanlanishi.

“Kasbiy kompetentlik integral, ya'ni boshqa vaziyatlar bilan chambarchas bog'langan xususiyatga egadir. U kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar, kasbiy konfliktlar va kasbiy topshiriqlarni hal eta olish qobiliyati va tayyorlik darajasi hisoblanib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi. “Qobiliyat” bu jarayonda asosiy o'rinni egallaydi va “moyillik”, “ko'nikma” ma'nosida tushuniladi. Boshqa bir umumiy tushuncha sifatida olganda qobiliyat-muayyan faoliyat sohasini muvaffaqiyatli o'zlashtirish va bajarishda asqotadigan shaxsiy sifat bo'lib hisoblanadi. “Tayyorlik” atamasi dastavval, mustaqil faoliyatga va kerak bo'lganda, ijodiy faoliyatga faol tarzda psixologik jihatdan tayyorlik ma'nosida qo'llanilgan. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi”. [2]

Talabalarning bakalavr tartibida oladigan mutaxassislik bilimi oliy ta'lim tomonidan maxsus bosqichlar asosida shakllantirilgan. Ular ichida axborotlar bilan ishlash, nutqiy faoliyat masalalari, tushuntirish texnologiyalari, belgilangan mavzular doirasida ilmiy tadqiqotlar bilan muntazam shug'ullanish, egallangan bilim va ko'nikmalarning amaliy tajribalarda sinalishi shular jumlasidandir. Ona tili o'qitish darslarini tashkil etishda kasbiy kompetensiyalikning shakllantirilishi tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi lozim. Bu borada kompetentlikning psixologik va kommunikativ tizimlariga katta ahamiyat qaratish yaxshi samaradorlikni yuzaga keltiradi. Psixologik kompetentlikning pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat shakllarining to'g'ri yo'lga qo'yilishini belgilaydi. Bu esa berilayotgan axborotning to'g'ri va sifatli yetib borilishi, salbiy yoki ijobiy natijalarni yo'lga qo'yadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatlarning bartaraf etilishida ham psixologik kompetentlikning o'rni kattadir. Kommunikatsion kompetentlik esa talabalarning tinglay olish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsatish, shaxsiy hayotda namuna bo'lish kabilarini belgilaydi.



Metodik kompetentlik ta’lim esa tarbiyaning uzviy bog‘liqligini saqlab qolgan holatda ta’lim shaklini tashkil etishda turli shakl va metod bilan amalga oshiriladi. Bunday shakl metod vositalarining turli xil xorij texnologiyalari bilan qo‘llanishi ahamiyatlidir.

“Maxsus kompetentlik asosini psixologik, kommunikativ, metodik, kreativ, informatsion, innovatsion kompetentlik tashkil etadi. Shuningdek, psixologik kompetentlik-pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish; kommunikativ kompetentlik-ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o‘quvchilar bilan samimiy muloqotda bo‘lish; metodik kompetentlik-o‘quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish; kreativ kompetentlik yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lish; informatsion kompetentlik - zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumot, axborotlarni mustaqil izlash; innovatsion kompetentlik-ta’limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta’lim yo‘nalishidagi innovatsiyalarni o‘zlashtirish lozim”. [3]

Kasbiy faoliyatdagi ziddiyatlarning ilg‘or texnologiyalar bilan bartaraf etishini belgilaydi. Kreativ kompetentlik yangilik yaratish, ijodkorlik tuyg‘ulari bilan ifodalanadi. Bu borada o‘quvchilarga dars sifatining yangi-yangi texnologiyalar va noan’anaviy darslar bilan amalga oshirishini belgilaydi. Informatsion kompetentlikda zamonaviy axborot texnologiyalari bilan foydalanish, kasbiy va shaxsiy faoliyatni bir tizimda amalga oshirish borasida axborotlarning mustaqil tarzda izlanishi tahlil etilishini belgilab beradi. O‘quvchilarga yangi dars uslublarini tadbiq etish va qayta ishlanish borasidagi ko‘nikmalar lozimdir. Innovatsion kompetentlikda ta’lim jarayonidagi innovatsion yangiliklarni xabardor bo‘lgan holatda dars tizimiga tatbiq etish mumkin. “Xorij texnologiyasi va innovatsiyalarini joriy etish, innovatsion birliklarni yaratishda o‘quvchilarning yosh xususiyatini inobatga olish lozim. Bu boradagi ishlarning samaradorligi o‘quvchilarda qiziqish va ona tiliga nisbatan bilim olish saviyasini yuksaltirib beradi. Ona tili darslarida ayni mana shu kabi ko‘nikmalarga qat’iyan e’tibor qaratish lozim”. [4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimov Azimbek. “Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning psixologik omillari”. O‘zbekisyonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy taqiqotlar jurnali. 18-son. – 2023



2. Краевский В.В., Хуторский А.В. Основы обучения. Дидактика и методика.- М., 2007.- 352с

3. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya-T., 2006.-357 b.

4. G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, Bobomurodova A, Alavutdinova N, Karimjonova V. Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik). Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti - 2012.

